

DIDAKTIKA – PEDAGOGIK TA’LIM NAZARIYASI

Davlatov Orziqul
+998915790979

Mardonov Muhriddin
+998932600516

Abdullayev Afzal
+998935320429

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Quyidagi maqolada didaktika fanining rivojlanish davri, uning predmeti, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot almashiladi. Bundan tashqari didaktikaning qonuniyatlariga ham e'tibor berib o'tilgan. Didaktika paradigmalari nechta va ularning turlari haqida ham qisqacha ma'lumot berilgan bo'lib, ularning vazifasi ham ochiqlangan.

Kalit so'zlar: Didaktika, tamoyil, qonuniyat, fenomenologik, Yan Amos Komenskiy, motivatsiya.

Kirish.

Insonning hayoti va faoliyatida o'qitish har doim juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'lism tasodifiy xususiyatga ega bo'lganda ham va asosan tasodifan axborotlami berish hamda taqlid qilishdan iborat. Keyinchalik ta'lism maqsadga muvofiq muntazam va rejallashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo'lganida ham shunday bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta'lismi nazariy tahlil qilish va o'rghanish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o'z nazariyasiga ega bo'lolmadi. Faqatgina XVII asrda bu sohada yirik o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Aynan o'sha paytda ta'lism alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi. Didaktika ta'larning nazariy jihatlari ta'lism jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlar, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lism maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lism jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarini o'rganuvchi fan.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy “Buyuk didaktika” (1657-yil) nomli mashhur asarida birinchi marta didaktika tushunchasini ishlatgan. Lekin Komenskiy “didaktika bu faqat ta'limgina emas, balki tarbiyalash ham”, deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lism nazariyasining muhim masalalari: ta'lism mazmuni, ta'larning ko'rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so'z yuritilgan.¹

Asosiy qism.

Yan Amos Komenskiy o'z asarida o'qituvchi butun sinf bilan jamoa bo'lib ish olib borishini, ya'ni sinf-dars tizimida o'qitishni olib borishni tavsiya etagan. Dars vaqtida o'tgan darsni qaytarish, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga

¹M. X. To'xtaxo'djayevaning umumiyl tahriri ostida. “PEDAGOGIKA” Toshkent “O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI” 2010. 66-bet.

vazifa berish kerakligini ko'rsatadi. Komenskiy darsni rejalarshirib o'tish to'g'risida ko'rsatma berar ekan har bir darsning o'z mavzusi va o'z vazifasi bo'lish lozimligini aytadi. O'qituvchi o'quvchilarning dars mashg'ulotlarida faol qatnashishlarini ta'minlashi, kuzatib borishi, sinfda intizom saqlanishi kerakligini uqtiradi. O'quv jarayonini tashkil qilishni haddan tashqari oshirib yuborib, o'qituvchi bir vaqtida 300 o'quvchi bilan dars olib borishi mumkin. O'qituvchi o'ziga yaxshi o'quvchini yordamchi qilib olishi mumkinligini aytadi. U maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish, ta'tillar berilishini joriy qiladi. O'quvchilar matabga bir vaqtida qabul qilinib, o'qish kuzda boshlanishi kerak, deb hisoblaydi. Komenskiy darslik qanday bo'lishi to'g'risida qimmatli fikrlar aytib, o'z zamonasi uchun namunali bo'lgan bir necha darsliklar yozadi. O'zining nazariy fikrlarini darsliklarida amalga tatbiq etgan. U darslikda o'quv materiallari etarli bo'lishi, qisqa, mazmunli, tushunarli, izchil va oddiy, bolalarga tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo'lishi, bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi shart, deb bayon etgan. Bu fikrlarni o'zining "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi" hamda "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" kabi darsliklarida yozib o'tgan.²

Hozirgi kunda didaktika "nimaga o'qitish?", "nimani o'qitish?", "qanday o'qitish?", "qayerda o'qitish" kabi savollarga javob izlaydi. Didaktikaning obyekti o'sib kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy ma'daniyatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta'lim berishdir. Didaktikaning predmeti sifatida o'rgatish va o'rganish, ularning o'zaro harakati aks etadi.

Paradigma aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya. Hozirda ta'limning keng tarqagan 5 ta paradigmasi mavjud: an'anaviy, fenomenologik, ratsionalistik, texnokratik va ezoterik.

An'anaviy paradigma. Bu paradigmada ta'limning bosh maqsadi: "Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir. Shuning uchun ta'lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko'proq mavjud unsurlari ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko'nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon bo'ladi.

Bixevoiristik paradigma. Ratsionalistik paradigmada an'anaviy paradigmaga qarama-qarshi o'laroq, o'zining diqqat markazida mazmunni emas, o'quvchilarning turli turdag'i bilimlarni o'zlashtirishining samarali usullarini qo'yadi. Ta'lim muassasasining maqsadi ta'lim oluvchilarda ijtimoiy me'yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli "xulq-atvor majmui"ni shakllantiradi.

Fenomenologik paradigmasing diqqat markazida o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lgan, hayot subyekti, shaxs erkinligi va ma'naviyati sifatidagi ta'lim

² K. Hoshimov, S. Nishonova. "PEDAGOGIKA TARIXI" 2-qism. Toshkent "ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI" 2005. 273-274-bet.

oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o’sishi uchun yordamga yo‘naltirilgan.

*Ilmiy-texnik, texnokratik paradigm*ning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur “aniq” ilmiy bilimlarni uzatish va o’zlashtirishdan kelib chiqadi. “Bilim - kuch”, shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o‘zini o‘zicha emas, faqat aniq belgilangan etalondagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi.

Ezoterik paradigm. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta’limiy paradigmalardan biri. Mazkur so‘zning yunonchadan so‘zma-so‘z tarjimasi “sirli”, “yashirin” ma’nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o‘zgarmas haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdarlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin deyiladi.

Natija va muhokamalar.

O‘qitish (didaktik) jarayonining mohiyatini quyidagi formula yordamida to‘liq anglash mumkin:

$$DJ=M+A_{o\cdot f}+A_{o\cdot fb}$$

Bu yerda: DJ – didaktik jarayon, M – motivatsiya, $A_{o\cdot f}$ – o‘quvchilarning o’zlashtirish faoliyati algoritmi, $A_{o\cdot fb}$ – o‘quvchilarning billish faoliyatini boshqarish algoritmi.³ Didaktika tamoyillarining tarixi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar dars oldidan ko‘zlagan maqsadlariga ko‘p kuch va vaqt sarflamay aniq yetishlari uchun, bir necha avlod olimlari tinimsiz izlanishlar olib borib, didaktika prinsiplar majmui yaratilishiga sababchi bo‘lganlar.⁴ Ta’lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi zaruriy, sababiy, o‘zgaruvchan aloqadorliklar yig‘indisi ta’lim qonuniyatlari deb ataladi. Ta’lim jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatlari mavjud:

- Ta’lim maqsadi jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasiga bog‘liq.

- Ta’lim mazmuni ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati, bolalarning yosh imkoniyatlari, ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o‘quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlariga bog‘liq.⁵ Hozirgi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasining Xalq ta’limi tizimi”ni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion

³ X. Xodjayev. “UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI” Toshkent “SANO-STANDART” 2017. 61-69-bet.

⁴ 4. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, K. Matnazarova, M. Shirinov, S. Hafizov “UMUMIY PEDAGOGIKA” Toshkent “FAN VA TEXNOLOGIYA” 2018. 84-bet.

⁵ 5. Sh. Sodiqova. “MAKTABGACHA PEDAGOGIKA” Toshkent “TAFAKKUR BO‘STONI” 2013. 196-bet.

shakllari va usullarini joriy etish maqsadida farmon qabul qilingan . Shunga muvofiq O‘zbekiston ta’limini rivojlantirish uchun ko‘plab chora-tadbirlar qabul qilingan.⁶

Xulosa. Biz didaktika sohasini qachon paydo bo‘lgandan tortib hozirgi kungacha bosib o‘tgan yo‘lini ko‘rib o‘tdik. Didaktikaning asl mohiyati ta’lim olish nazariyasi ekanligini ham tushinib yetdik. Endi bu masalani yosh avlodga tushintirib yetkazishdek maqsad oldimizda turibdi. Buning uchun avvalo O‘zbekiston Respublikasida didaktikaga oid bo‘lgan adabiyotlarni ko‘paytirish, didaktika bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarni O‘zbekistonda chop etish lozim. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasida ta’limni isloh qilib uning nazariy asosini har tomonlama rivojlantirsak hozirgi yosh avlodda didaktikaga bo‘lgan tushunchani hosil qilgan bo‘lamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. M. X. To‘xtaxo‘djayevaning umumiy tahriri ostida. “PEDAGOGIKA” Toshkent “O‘ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI” 2010.
2. K. Hoshimov, S. Nishonova. “PEDAGOGIKA TARIXI” 2-qism. Toshkent “ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI” 2005.
3. 3-B. X. Xodjayev. “UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI” Toshkent “SANO-STANDART” 2017.
4. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, K. Matnazarova, M. Shirinov, S. Hafizov “UMUMIY PEDAGOGIKA” Toshkent “FAN VA TEXNOLOGIYA” 2018.
5. Sh. Sodiqova. “MAKTABGACHA PEDAGOGIKA” Toshkent “TAFAKKUR BO‘STONI” 2013.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son

⁶ 6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son